

BOLALARNING IJTIMOIIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Navruzova Muyassar G‘aybullayevna

f.f.f doktori,(PhD), dotsent

Avezova Surayyo Mirg‘olibovna

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo‘nalishi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolaning jamiyatga moslashuvida maktab va ota-onaning o‘zaro aloqasi, maktab yoshidagi bolalarning jinoyat sodir etish holatlarini kamaytirish va ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash xususida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, boshlang‘ich maktab yoshi, o‘spirin, erta yoshlik, jinoyat, ijtimoiylashuv.

Jamiyatimiz hayotida yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish, o‘sib-unib kelayotgan yoshlarni ma‘nan yetuk qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo‘lganidek bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, inson umri davomida oladigan ma‘lumotlarning 70 % ini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Maktabgacha ta‘lim bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib, barkamol shakllanishini ta‘minlaydi, unda o‘qishga bo‘lgan intilish hissini uyg‘otadi, uning muntazam ta‘lim olishini ta‘minlaydi.

Bolaning ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda oila hamda atrof-muhitning ta‘siri juda kata. Chunki kichik yoshdagi bolaning miya faoliyati kattalarnikiga nisbatan ancha faol bo‘lib, ko‘rgan, eshitgan, guvohi bo‘lgan har qanday voqea-hodisalarni tez ilg‘ab oladi. Ota-ona hamda maktab jamoasi esa bu hodisadan unumli foydalangan holda kerakli yo‘nalishlarga yo‘naltira olishi lozim.

Ma‘lumki, maktab bola ijtimoiylashuvini uch bosqichga bo‘ladi. Ular:

1. Boshlang‘ich maktab yoshi (6-10 yosh)
2. O‘spirin (11-14 yosh)
3. Erta yoshlik (15-17 yosh)

Bu davrlarning maktabda o‘tishi, maktab jamoasiga bo‘lgan mas‘uliyatning yuqori ekanligidan dalolat. Bugungi kunda o‘spirin hamda erta yoshlik davridagi maktab o‘quvchilari orasida jinoyat sodir etish holatlari ko‘plab kuzatilmoqda. Bundan jarayonlarning ko‘zga tashlanarli darajada ortishi jamiyatning rivojiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bunday vaziyatlarda bolaning bo‘sh vaqtlarini nazoratga olib, ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning ijtimoiylashish jarayonida maktab, birinchi navbatda shaxsiyatning har tomonlama kamol topishi uchun A.Mudrik²⁰ tomonidan ta‘kidlangan barcha uchta guruhni:

²⁰ B.Qodirova. Bolaning ijtimoiy moslashuvi. T.: "Innovatsiya-Ziyo". 2021, 12-b.

1. Tabiiy-madaniy
2. Ijtimoiy-madaniy
3. Ijtimoiy-psixologik

vazifalarini tizimli ravishda birlashtirishi kerak.

Bundan tashqari har bir bolaning o'ziga xos muammolarini ularning xarakteridan kelib chiqqan holda hal etish lozim. Maktab yoshidagi bolalar tez ishonuvchan va e'tiborli bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda bolaning psixikasiga yondashish yaxshi natija beradi. Bola muammolarini, sirlarini ishonib aytganida ularni birovlariga yetkazmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari ularning o'ziga xos muammolarini idrok etgan holdan, ularni jazolamasdan, qilgan xatolarining to'g'ri muomala qilgan holda tushuntirish yaxshi natija beradi. Qilgan xatosi uchun bir marta jazolangan bola qayta yan shunday vaziyatga duch kelsa buni atrofdagilardan yashirishga harakat qiladi. Bu holat esa muammolarning kattalashishiga sabab bo'ladi.

Maktab va ota-onaning doimo aloqada bo'lib turishi ham bolaning ijtimoiylashuvi uchun ahamiyatlidir. Shu sababli maktablarda har oyda bir kun “Ota-onalar bilan suhbat” kunini tashkil etish natijaning sifatli bo'lishiga olib keladi. Har oyda farzandining ta'lim va tarbiya borasidagi o'zgarishlardan boxabar bo'lib turish ota-onalar uchun ham foydali, albatta. Chunki har qanday muammoni uning kichikligidayoq hal etish oson va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham maktablarda ota-onalar bilan har oyda suhbat olib borish muhimdir.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, har bir bola davlat kelajagidir. Ularning yaxshi ta'lim-tarbiya olishiga esa ota-ona, atrof-muhit, maktab jamoasi har doim mas'uldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
2. Turg'Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA “O'TTIZ YILLIK URUSH” NING AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
3. Ashirova, N. X. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA QADIMGI HINDISTON MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
4. Yoriqulov, A. S. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA HIND SIVILIZATSIYASI O'RNI. *Scientific progress*, 1(5).
5. Rahimberdiyev, A. E. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA ELAM DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
6. Nomozov, M. M. O., & Haydarov, S. A. (2021). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Scientific progress*, 1(5).

20-Fevral, 2025-yil

7. Fayziyeva, Y. I. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA SURIYA VA FINIKIYA PODSHOLIGI O'RGANILISHI. *Scientific progress*, 1(5).

8. Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRANKLAR DAVLATI O'RNI VA AHAMYATI. *Scientific progress*, 1(5).

9. Амиркулович, Х. С. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Scientific progress*, 1(3).

10. Амиркулович, Х. У. (2021). ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ. *Scientific progress*, 1(3).

